MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari..... 714  <b>Aslanova Malohat Akramovna</b></p> <p>Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida..... 718  <b>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</b></p> <p>Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish ..... 721  <b>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</b></p> <p>Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati ..... 725  <b>Pirimova Nargiza Adilovna</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi..... 728  <b>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari ..... 733  <b>O'tahanova Manzura G'ofurovna</b></p> <p>Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context..... 736  <b>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</b></p> <p>Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni . 749  <b>Altibayeva Malika Kuvandikovna</b></p> <p>Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari ..... 752  <b>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</b></p> <p>Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar ..... 757  <b>Shukurova Nargiza Ikramovna</b></p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati ..... 762  <b>Xudoyberdiyev Sh. M.</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari..... 766  <b>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</b></p> <p>Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) ..... 770  <b>Багирова Паринисо Бобировна</b></p> <p>Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775  <b>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</b></p> <p>Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili ..... 780  <b>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</b></p> <p>Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari ..... 784  <b>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</b></p> <p>Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789  <b>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</b></p> <p>Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793  <b>M. B. Pulatova</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili ..... 796  <b>Maraimova Muxtabar Pulatovna</b></p> <p>Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801  <b>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</b></p>
-------------------------------------	---



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli .....	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari .....	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies .....	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish .....	818
<i>Eshquvvatov To'liqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish .....	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari .....	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish .....	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish .....	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar ....	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi .....	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari .....	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods .....	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari .....	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari .....	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari ....	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish .....	896
<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari .....	907
<i>Tolipova Shohista Quadrat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli .....	911
<i>Turg'unova Gulzoda Botir qizi</i>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari .....	916
<i>Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</i>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari .....	919
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari .....	923
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi .....	927
<i>Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	931
<i>Bilolov Inomjon O'ktamovich</i>	
Karatening kelib chiqish tarixi .....	934
<i>Isayev Saidaliddinxon Islom o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar .....	937
<i>Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi</i>	
Родительские установки и развитие личности .....	941
<i>Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi .....	945
<i>Yusupova Umida</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari .....	950
<i>Kadirova Omaxon Sobirjonovna</i>	
Maktab ta'limi tizimida raqamli boshqaruv modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish .....	954
<i>Raxmatova Xurshida G'ofurovna, Tangirov Xurram Ergashevich</i>	
Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде .....	961
<i>Камолдинова Диёра Жалолиддин қизи</i>	
Boshlang'ich maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari.....	968
<i>Fayzidinova Maxsuda Akmalovna</i>	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish: milliy va xalqaro pedagogik yondashuvlar .....	971
<i>N. R. Dushayeva</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarning individual profili asosida moslashtirilgan didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish.....	975
<i>Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalari .....	980
<i>Rabbimova Munisxon Mustafoyevna</i>	
O'qitishda san'at vositalaridan foydalanish genezisi va zamonaviy tajribalari.....	983
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
Sun'iy intellekt muhitida ta'lim olish jarayonida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash .....	989
<i>Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	993
<a href="#">Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, R. Rayimova</a>	
The Influence of Digitalization on Written Communication.....	998
<a href="#">Yusupova Sitora Ashuraliyevna</a>	



# O'QITISHDA SAN'AT VOSITALARIDAN FOYDALANISH GENEZISI VA ZAMONAVIY TAJRIBALARI



Suvanova Kamola Raimqul qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi  
 "pedagogika" kafedrası (PhD), dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim jarayonida san'at vositalaridan foydalanishning genezisi va zamonaviy tajribasi tadqiq etilgan. San'atni boshqa fanlar bilan integratsiyalash zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishi sifatida talqin qilinib, uning o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Xususan, san'at elementlarini o'qitish jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash, tanqidiy mushohada, muloqot va hamkorlik kabi ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, hamkorlik, art-integrated learning, art pedagogika, ijodiy fikrlash, kognitiv rivojlanish, hissiy muvofaqiyat.

**Abstract:** The article examines the genesis and modern experience of using art in the educational process. The integration of art with other subjects is interpreted as an innovative direction of modern education, and its role in the formation of 21st century competencies in students is highlighted. In particular, the issues of developing students' skills such as creative thinking, critical observation, communication, and collaboration through the application of art elements in the educational process are analyzed.

**Key words:** communication, collaboration, art-integrated learning, art pedagogy, creative thinking, cognitive development, emotional well-being.

**Аннотация:** В статье рассматриваются генезис и современный опыт использования искусства в образовательном процессе. Интеграция искусства с другими предметами интерпретируется как инновационное направление современного образования, и подчеркивается его роль в формировании компетенций XXI века у учащихся. В частности, анализируются вопросы развития у учащихся таких навыков, как творческое мышление, критическое наблюдение, коммуникация и сотрудничество посредством применения элементов искусства в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** интегрированное обучение через искусство, педагогика искусства, творческое мышление, когнитивное развитие, эмоциональное благополучие.

## KIRISH

O'zbekiston san'at ustalari turli badiiy vositalar orqali kishilarga tinch hayot hamma narsadan afzalligini, yovuzlik hamda zo'rvonlik inson sha'niga yarashmasligini uqtirishga harakat qilmoqdalar. Ta'kidlash joizki, madaniyat va san'at hamisha kishilarni ezgulik ruhida tarbiyalashga, ularning qalbiga insonparvarlik hissini singdirishga xizmat qilib kelmoqda. Bu holat O'zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatida ham aniq ko'rinadi. Jumladan, respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatlarida o'quvchilar umumta'lim dasturidan tashqari, badiiy va musiqiy yo'nalishdagi fanlarni ham o'rganadilar. Hozirgi kunda jamiyat hayotida san'at muhim rol o'ynaydi. Uning taraqqiyoti inson hayotining deyarli barcha sohalariga taalluqli bo'lib, inson va san'at o'rtasidagi o'zaro aloqalarni belgilab beradi, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga, insonning o'z madaniyati va estetik ko'nikmalarini shakllantirishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli san'at, uning genezisi, mohiyati, sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va rolini tahlil etish XX asrning diqqat-e'tiboriga aylandi.

So'nggi vaqtlarda san'at bilan bog'liq hodisalarni keng ko'lamda tahlil etish, uning rivojlanishiga ta'sir o'tkazuvchi turli tarixiy, ijtimoiy, tarbiyaviy va boshqa omillarni hisobga olish zarur. San'at tarixida tasviriy san'atning shakllanishi uch davrga bo'linadi: ibtidoiy jamoa san'ati, qadimgi Sharq san'ati, antik dunyo san'ati. Ibtidoiy jamoa san'ati o'z ichiga dunyoning turli burchaklarida paydo bo'lgan paleolit, mezolit, neolit, bronza va temir asrlari davrida yaratilgan tasviriy asarlarni qamrab oladi.

Qadimgi Sharq san'ati eng qadimgi Misr san'ati va Old Osiyo san'atidan tashkil topadi. Jahon san'ati tarixida katta o'rinni egallaydigan antik dunyo san'ati Egey san'ati, Yunoniston san'ati, Etrusk san'ati va Rim san'ati kabi qismlardan tashkil topadi. Ibtidoiy jamoa davrida (taxminan 35 ming yil muqaddam) yer sharining deyarli barcha burchaklarida ibtidoiy rassomlar tomonidan toshlarga, g'or devorlariga qushlar, hayvonlar va odam tasvirlari tushirilgan. Ular san'at darajasidagi mukammal asarlar bo'lmasa-da, tasviriy san'atning shakllanishiga asos bo'lgan. Masalan, bug'u tasviri paleolit davrida yaratilgan bo'lib, u Fransiyaning Fon-de-Gom g'oridan topilgan.

Poda tasviri tushirilgan rasm neolit davriga xos bo'lib, u Sahroi Kabirning Tassili hududidagi toshga bo'yoq bilan ishlangan. Tasviriy san'at so'nggi paleolit – tosh davrida vujudga keldi. Antik davrda esa rassomlik san'ati me'morlik va haykaltaroshlik bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlandi. O'rta asrlarda Yevropa va Kavkazda ibodatxonalarini, diniy qo'lyozma kitoblarni bezashda xizmat qildi, Yaqin va O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Yaponiyada miniatyura san'ati rivojlandi. Tasviriy san'at rivojiga Uyg'onish davrida katta hissa qo'shildi. Bu davrning insonparvarlik g'oyalari tasvirida realistik tasvir avj oldi. Murillo, Pyero della Francheska, Botticelli, Rafael Santi, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Titsian kabi buyuk rassomlar estetik jihatdan bebaho asarlari bilan tasviriy san'at tarixida unutilmas obrazlar yaratdilar.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qadim zamonlardan beri san'at insonni anglashning asosiy vositalaridan biri bo'lib kelgan. "XV asrda Sohobqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab hattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi". Amir Temur tarix maydoniga kirib kelishi bilan XIV asr mintaqa miqyosida qaytadan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy yuksalish boshlandi. Madaniy jihatdan taraqqiy etgan turli mintaqalar, davlatlar, o'ziga xos diniy va dunyoviy qarashlarga ega xalqlarni birlashtirgan temuriylar saltanatida Markaziy Osiyo xalqlari, Eron, Hind, Xitoy va Arab madaniyatining eng yaxshi an'analari uyg'unlashgan yuksak badiiy madaniyat yuzaga keldi.

Mahobatli rangtasvir namunalarini hozirgi kunda ham binolarda qo'llanilmoqda, masalan, bugungi kunda bino interyeridagi ayrim bezakli unsurlar temuriylar davri me'morchiligidan meros bo'lib kelmoqda. Tasviriy san'atning u yoki bu turining takomillanishi, taraqqiyoti yoki tanazzuli jamiyat mafkuraviy hayotiga bog'liq. San'at tarixiy bosqichlarda mafkura vositachisi sifatida faoliyat ko'rsatgan. O'z davrida mafkura rivojiga ta'sir qilib, ba'zi davrlarda ijodkor iste'dodiga samarali ta'sir ko'rsatsa, ba'zan mustabid ruhdagi qarashlar faoliyatini cheklab qo'ygan. Qadim davrlarda san'at bilan din integratsiyasi o'ziga xos holda rivojlanib kelgan. Shuningdek, islom qadriyatlarida ham san'atda hissiy-obrazli ramz va timsollar tarzida o'z aksini topgan. Ramziylik voqelikning aynan o'zini emas, balki ishora va o'xshatish orqali anglatishdir. San'atdagi bu usul Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridagi qushlar obrazlari misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ajdodlar tomonidan yaratilgan ma'naviy meros, shu jumladan san'at asarlari shaxs ma'naviyatini yuksaltirishning muhim omilidir. Jamiyat ma'naviy hayotining o'zagi – ma'naviy madaniyat bo'lib, u jamiyat mavjudligi va rivojida o'ziga xos gnoseologik asos rolini o'ynaydi. Manbalarda manzarali tasvirlar bilan birga syujetli rangtasvir ishlarida tarixiy shaxslar portretlari aks ettirilgan asarlar mavjud bo'lgani ham qayd etilgan. Masalan, Ibn Arabshohning yozishicha, temuriylar davrida Samarqand saroylari devorlarida bayramlar, uchrashuvlar, janglar va shaharlarning qamal qilinishi, shuningdek, ov manzaralari, sovg'a berish marosimlari va ziyofatlar tasviri, Amir Temur va uning o'g'illari hamda nabiralarning portretlari aks ettirilgan. Mahobatli rangtasvir ishlari Amir Temur faoliyatidagi eng muhim voqealar tasviriga bag'ishlangan bo'lib, ular bugungi kunda temuriylar davri madaniyati va san'ati tarixini o'rganishda ko'rgazmali manba bo'lib xizmat qilmoqda.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

XX asrda san'at siyosiy mafkura tazyiqi tufayli achinarli ahvolga tushib qoldi. Sho'ro san'ati siyosiy g'oyalarni amalga oshiruvchi qurol vazifasini bajardi. 1930-yildan 1980-yilgacha sotsializm rassomlar ijodining sifati va qiymatini belgilab beruvchi asosiy mezon bo'ldi. 1980-yillar oxirida yuz bergan qayta qurish jarayonida unga mutlaqo zid tamoyillar shakllana boshlandi. O'zbekistonning bir guruh rassomlari sho'ro tarixi va mafkurasi voqeligini tanqidiy baholashga harakat qildilar. Biroq, moskvalik rassomlar ishlari estetikasidan farqli ravishda,



O'zbekiston rangtasvirida salbiy tendensiyalar an'anaviy madaniyat qadriyatlarini qayta shakllantirish hamda milliy o'zini anglash poetikasi va o'z ifoda tilini topishga urinish bilan uyg'unlashtirildi. Bu yillarda san'atda milliy uslublarni izlash jarayoni bir xil kechmadi.

Bir qator rassomlar eyforiya ta'sirida "yevropacha yot rangtasvir"dan voz kechib, Sharq miniatyurasi uslubida ish olib borish qulayligini bildirdilar. 1991-yilda mustaqillikka erishilishi iqtisodiy modellar va mafkuraviy muhitni o'zgartirishni taqozo etish bilan birga san'atda milliy paradigmani tanlash strategiyasini shakllantirishga ham imkon tug'dirdi. Yosh mustaqil davlatning umuminsoniy va milliy qadriyatlarini uyg'unlashtirish zarurligi to'g'risidagi madaniy siyosati O'zbekiston tasviriy san'ati istiqbolini belgilab berdi. Rassomlar Sharqning an'anaviy qadriyatlariga, boy merosimizga qiziqdilar, shuningdek, zamonaviy dunyo san'ati yutuqlarini ham o'zlashtira boshladilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mamlakat rahbariyatining badiiy madaniyat taqdiri uchun iqtisodiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi san'atning keyingi rivojida muhim omil bo'ldi. Mustaqillik davrida tasviriy san'at sohasida respublika va jahon miqyosida yirik ko'lamdagi ko'rgazma loyihalari tayyorlanib, ularning davlat tomonidan moliyalashtirilishi natijasida yangi turdagi, jahon standartlariga mos keluvchi ko'rgazma zallari qurildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Amerikalik o'quvchilar uchun san'at ta'limi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va xalqaro tashabbuslarga bag'ishlangan nashrlarda san'at ta'limining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni keng yoritilgan. Xususan, san'at ta'limi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim jarayonida muhim o'rin tutishi, uning fanlararo bog'liqligi va davlat siyosatlari darajasidagi strategik ahamiyati "Arts Education for America's Students: A Shared Endeavor" nomli xalqaro tahliliy hujjatda o'z aksini topgan. San'at ta'limi orqali ijodiy fikrlash, estetik did va ijtimoiy-hissiy salohiyatni rivojlantirish Americans for the Arts, National Art Education Association, National Association for Music Education kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan ta'limning ajralmas qismi sifatida asoslab berilgan.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, AQSH aholisining 93%i bilim olishning muhim omili sifatida san'at ta'limini samarali deb e'tirof etadi. PK-12 umumiy ta'lim tizimida san'at ta'limini joriy etish orqali barcha o'quvchilar uchun ta'limga qo'shimcha qiymat yaratilishi "Arts Education for America's Students: A Shared Endeavor" nomli tahliliy hujjatda ta'kidlangan. Unda san'at ta'limi maktab va jamoa hamkorligida tashkil etilishi, o'qituvchilar, ota-onalar, maktab ma'muriyati hamda nodavlat madaniy tashkilotlar o'rtasidagi uzoq muddatli faol hamkorlik asosida amalga oshirilishi zarurligi qayd etiladi. Shuningdek, san'at ta'limi milliy standartlarga mos holda davlat siyosati darajasida integratsiya qilinishi lozimligi, ta'lim muassasalarida san'at sohasini rivojlantirish, o'qituvchilarning amaliy va metodik ko'nikmalarini takomillashtirish hamda o'quvchilarda ijodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlar zarurligi ilgari surilgan. Bu kabi yondashuvlar san'at-pedagogik modellarni qo'llash orqali o'qituvchilar hamkorligini kuchaytirish va ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi tadqiqotlar natijasida, ayniqsa, xorij metodikasida pedagogik ilmiy jamoatchilik ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni izlash, zamonaviy vositalar orqali ta'lim ishtirokchilarining hissiy dunyosini boyitish, san'atni ta'limga integratsiya qilish va san'atga asoslangan pedagogika (Arts-Based Learning, Art Integrated Learning (AIL))ni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etib, ta'lim taraqqiyotining yangi bosqichlarini kashf etmoqda. Art-Integrated Learning ta'lim darsliklar chegarasidan chiqib, o'qituvchilar uchun bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi dinamik maydonni yaratadi. Bu innovatsion yondashuv bo'lib, o'qituvchilarni tasviriy san'at, drama, musiqa va boshqa ijodiy fanlar elementlaridan foydalangan holda murakkab fanlarni chuqurroq tushunishga undaydi hamda o'rganishni inklyuziv va qiziqarli qiladi. Aslida, badiiy integratsiyalashgan ta'lim san'at va madaniyatning turli shakllaridan foydalanadigan o'zaro faoliyat pedagogik yondashuv sifatida tavsiflanadi. Art pedagogika nafaqat o'qituvchilar tayyorlashda, balki boshqa sohalarda ham, masalan, hamshiralik ta'limida keng qo'llanilmoqda. Berit Sandberg o'zining "Effects of Arts-Based Pedagogy on Competence Development in Nursing: A Critical Systematic Review" nomli ilmiy maqolasida hamshiralik ta'limida san'at pedagogikasining integratsiyasi talabalarning hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga, empatiya va insoniy yondashuvni kuchaytirishga yordam berishini ta'kidlaydi.

O'qituvchilarga san'atni o'rgatish orqali ularning ijodiy va hissiy farovonligi oshishi hamda ta'lim berishda yangi metodologik yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlari kengayishi qayd etiladi. Art pedagogikaga urg'u berilishi ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan harakatlarni ifodalaydi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ta'lim jarayonini ta'lim oluvchilarning motivatsiyasiga ta'sir etuvchi art asosida tashkil etishga e'tibor kuchaymoqda. Chunki olib borilayotgan izlanishlar aynan san'at va pedagogika orqali ta'lim oluvchilar ongida o'zini boshqarish, fikrlash, tashabbuskorlik, motivatsiya olish, qo'llab-quvvatlash va yaratuvchanlik kabi sifatlarni shakllantirish imkonini beradi. AIL (Arts Integrated Learning – san'at integratsiyalashgan o'qitish) modeli barcha

o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish, shaxsiy ma'no va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan tajribaga asoslangan o'qitish modeli sifatida ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvda o'quvchilar turli san'at faoliyatlarida faol ishtirok etib, fanlararo va ma'naviy jihatdan boy muhitda bilimni o'zlashtiradilar.

San'at integratsiyasi orqali olib boriladigan o'qitish nafaqat kognitiv, balki ijtimoiy-hissiy va psixomotor qobiliyatlarni ham rivojlantiradi. AIL modelining joriy etilishidan avval u turli ta'lim muassasalarida amaliyot tarzida sinovdan o'tkazilgan va natijalar uning o'quv jarayonini mazmunan boyitish, qiziqarli va samarali qilishda yuqori potensialga ega ekanini ko'rsatgan. O'qituvchilar, ota-onalar va mutasaddilarning fikrlariga ko'ra, mazkur yondashuv interdissiplinar o'qitishni ta'minlab, san'atni ta'limga integratsiya qilishning ijobiy samaralarini namoyon etgan. AIL (Arts Integrated Learning) pedagogikasi Hindistonda amalga oshirilayotgan NISHTHA (National Initiative for School Heads' and Teachers' Holistic Advancement) milliy tashabbusiga integratsiya qilingan. Mazkur tashabbus maktab ta'limi va savodxonlik departamenti tomonidan o'qituvchilarni, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichidagi pedagoglarni kompleks va kompetensiyaga asoslangan holda rivojlantirishga qaratilgan. AIL asosida ishlab chiqilgan o'quv moduli nafaqat ta'lim mazmunini boyitish, balki o'qituvchilarga ta'lim jarayonida innovatsion, interdissiplinar yondashuvni amalga oshirishda yo'l-yo'riq ko'rsatishga xizmat qiladi. Mazkur modelning asosiy maqsadi o'quvchilarning akademik tushunchalarini san'at vositalari – qo'shiq, raqs, aktyorlik va badiiy ijod orqali anglash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu AIL sinflarida ta'limni faol, hissiy va estetik jihatdan boy, ijodkor muhitda tashkil etish imkonini beradi. Shu boisdan ham AIL pedagogikasi nafaqat bilim berish, balki o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini to'liq shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. San'at ta'limi turli bosqichlardagi o'quvchilarning o'quv jarayoniga turlicha usullar bilan integratsiyalashmoqda.

Xususan, san'at ta'limini o'quv dasturi sifatida, qo'shimcha dastur sifatida va integratsiyalashgan pedagogik model sifatida qo'llash orqali mazmunli ta'lim muhiti yaratiladi. Har bir yondashuv o'ziga xos didaktik vazifalarni bajaradi va o'zaro bir-birini to'ldiradi. San'atni integratsiyalashgan o'qitish modeli ayniqsa ko'p fanli yondashuv doirasida o'qituvchilarga nafaqat mazmunli aloqa o'rnatish, balki o'quvchilarning ijtimoiy-hissiy va kognitiv faolligini oshirish imkonini ham beradi. Masalan, o'quvchilarning vizual san'at mashg'ulotlari davomida ikki yoki uch o'lchamli shakllarni yaratishi, badiiy texnikalar va tarixiy kontekstlarni o'rganishi orqali ularning estetik va tarixiy tafakkuri shakllanadi. Yoki alifboni yodlashda qo'shiqlardan foydalanish orqali o'quvchilarni o'rganishga jalb qilish esa san'atni ta'limni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida namoyon etadi. Biroq san'at shaklining o'ziga xos metodik va maqsadli o'rganilishi mavjud bo'lmasa, bu yondashuv san'atni integratsiyalashgan emas, balki vositaviy model sifatida tasniflanadi. Integratsiyalashgan dasturda esa san'at nafaqat vosita, balki mazmun va metod sifatida ishlaydi. Bu orqali ikki tomonlama o'quv maqsadlariga erishiladi – masalan, teatr orqali ham aktyorlik san'ati, ham ijtimoiy fanlar bo'yicha mahorat shakllanadi. San'at orqali o'quvchilarning fanlararo tafakkuri rivojlanadi, bu esa ta'lim jarayonini chuqurroq va ijodiyroq tushunishga xizmat qiladi.


Mazkur modelning asosiy maqsadi: o'quvchilarning akademik tushunchalarni san'at vositalari – qo'shiq, raqs, aktyorlik va badiiy ijod orqali anglash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu AIL sinflarida ta'limni faol, hissiy va estetik jihatdan boy, ijodkor muhitda tashkil etish imkonini beradi. Shu boisdan ham AIL pedagogikasi nafaqat bilim berish, balki o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini to'liq shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

San'at ta'limi turli bosqichlardagi o'quvchilarning o'quv jarayoniga turlicha usullar bilan integratsiyalashmoqda. Xususan, san'at ta'limini o'quv dasturi sifatida, qo'shimcha dastur sifatida va integratsiyalashgan pedagogik model sifatida qo'llash orqali mazmunli ta'lim muhiti yaratiladi. Har bir yondashuv o'ziga xos didaktik vazifalarni bajaradi va o'zaro bir-birini to'ldiradi. San'atni integratsiyalashgan o'qitish modeli ayniqsa ko'p fanli yondashuv doirasida o'qituvchilarga nafaqat mazmunli aloqa o'rnatish, balki o'quvchilarning ijtimoiy-hissiy va kognitiv faolligini oshirish imkonini ham beradi.

Masalan, o'quvchilarning vizual san'at mashg'ulotlari davomida ikki yoki uch o'lchamli shakllarni yaratishi, badiiy texnikalar va tarixiy kontekstlarni o'rganishi orqali ularning estetik va tarixiy tafakkuri shakllanadi. Yoki alifboni yodlashda qo'shiqlardan foydalanish orqali o'quvchilarni o'rganishga jalb qilish esa san'atning ta'limni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatidagi rolini ko'rsatadi. Biroq san'at shaklining o'ziga xos metodik va maqsadli o'rganilishi mavjud bo'lmasa, bu yondashuv san'atni integratsiyalashgan emas, balki vositaviy model sifatida tasniflanadi. Integratsiyalashgan dasturda esa san'at nafaqat vosita, balki mazmun va metod sifatida ishlaydi. Bu orqali ikki tomonlama o'quv maqsadlariga erishiladi – masalan, teatr orqali ham aktyorlik san'ati, ham ijtimoiy fanlar bo'yicha mahorat shakllanadi. San'at orqali o'quvchilarning fanlararo tafakkuri rivojlanadi, bu esa ta'lim jarayonini chuqurroq va ijodiyroq tushunishga xizmat qiladi.



Buni quyidagi rasm asosida ko'rib chiqamiz:




1-rasm: San'at ta'limiga integratsiya qilish yondashuvlarini taqqoslash

### XULOSA

San'atni boshqa fanlarga integratsiyalash – zamonaviy ta'limning innovatsion va ko'p qirrali yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, san'atni o'qitish jarayonida qo'llash o'quvchilarda ijodiy fikrlash, tanqidiy mushohada yuritish, muloqot va hamkorlikda ishlash kabi universal ko'nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv AIL (Arts Integrated Learning) modeli asosida bir qator davlatlarda, xususan, AQSh, Hindiston, Kanada va Avstraliya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan va amaliyotda keng tatbiq etilmoqda.

AIL modeli san'atni fanlararo o'qitishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lib, darslarni interdisipliner, jonli, quvnoq va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. O'quvchilarning shaxsiy ma'nodagi anglashlarini shakllantirish, o'rganilayotgan materialni amaliy, hissiy va vizual jihatdan chuqur anglash orqali ta'lim samaradorligini oshiradi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, san'at orqali o'rgatilgan mavzular uzoq muddat esda saqlanadi va o'quvchilarning faolligi ortadi. San'atni integratsiyalash orqali turli ko'nikmalarga ega o'quvchilar, xususan, vizual, kinestetik, musiqa va fazoviy-intellektual yo'nalishdagi o'quvchilar ham to'liq jalb etiladi. Bu esa inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiq tarzda barcha o'quvchilarga sifatli ta'lim imkonini yaratadi. 1.3-rasmda san'atning ijodkorlik va kognitiv rivojlanishga ta'siri jadvalini ko'rishimiz mumkin.



2-rasm: San'atning ijodkorlik va kognitiv rivojlanishga ta'siri

Masalan, tarix darslarida dramatik sahnalarni qo'llash, matematika darslarida ritmik usullar yordamida tenglamalarni tushuntirish yoki tabiatshunoslik darslarida san'at asarlari orqali tabiiy hodisalarni tasvirlash orqali abstrakt tushunchalarni konkret (aniq)lashtirish mumkin. Shuningdek, xalqaro tajribada san'atni integratsiyalashgan ta'limni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'qituvchilarni maxsus tayyorlash kurslari, metodik qo'llanmalar va dars rejalarini ishlab chiqish tajribasi mavjud. Bu pedagogik yondashuvlarning barchasi san'atni fanlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, san'atni fanlararo integratsiyalash nafaqat o'qituvchining metodikasini boyitadi, balki o'quvchining bilim, ko'nikma va qobiliyatlarining uyg'un rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Ushbu yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, san'at-pedagogik texnologiyalarni uzviy joriy etish orqali o'qituvchilarning professional rivojlanishini, o'quvchilarning esa ijodiy salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. Toshkent – 2009. 41-bet.
2. Sh. Mustafayev. Oliy ta'lim modernizatsiyasining art-pedagogik asoslarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. 2022.
3. Eshanova G.N. Diniy qadriyatlar va tasviriy san'at integratsiyasining shaxs ma'naviyatiga ta'siri. PhD ilmiy dissertatsiyasi. Toshkent – 2012.
4. Arts Education for America's Students: A Shared Endeavor. Americans for the Arts, National Art Education Association, National Association for Music Education, 2013. URL: <https://www.americansforthearts.org>
5. Arts Education for America's Students: A Shared Endeavor. Americans for the Arts, National Art Education Association, National Association for Music Education, 2013. URL: <https://www.americansforthearts.org>
6. Sandberg, B. Effects of Arts-Based Pedagogy on Competence Development in Nursing: A Critical Systematic Review. Nursing Reports, 2024.
7. Arts Integrated Learning (AIL) Model. National Art Education Association Report. 2018. URL: <https://www.arteducators.org>
8. Arts Integrated Learning – A Resource Module under NISHTHA. Ministry of Education, Government of India, 2020. URL: <https://ncert.nic.in/nishtha.php>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.